

VAKOLATLI SHAXSLARNI BOJXONA AUDITIDAN O‘TKAZISHNING O‘ZIGA XOS
ALOHIDA JIHATLARI VA AYRIM XUSUSIYATLARI

Ashurov Dostonjon Ashrafjon o‘g‘li

Quehqarova Ug‘iloy Bohodir qizi

Bojxona qo‘mitasi Bojxona instituti kursantlari,

Azizov Sherzod O‘ktamovich,

ilmiy rahbar i.f.d., dotsent

Annotatsiya: Maqolada tovarlar chiqarib yuborilganidan keyin vakolatli shaxslarga nisbatan bojxona auditini amalga oshirish orqali bojxona tartib-taomillarining yanada soddalashtirilishi, bojxona organlari faoliyati samaradorligini oshirish, shuningdek, biznesni rivojlantirish yo‘lida byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish va mamlakatda investitsiya muhitini yaxshilash bojxona organlari mehnat resurslaridan oqilona foydalanish kabi masalalarga e‘tibor qaratilgan. Shuningdek, tovarlar chiqarib yuborilganidan keyin vakolatli shaxslarga nisbatan bojxona auditini amalga oshirishning o‘ziga xos ayrim jihatlari va xususiyatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: tashqi iqtisodiy faoliyat, vakolatli shaxs, tovarlar chiqarib yuborilgandan keyingi bojxona nazorati, bojxona auditi, xavf darajalari, vakolatli iqtisodiy operatorlar, bojxona to‘lovlari, buxgalteriya hisobi va hisoboti.

Аннотация: В статье рассматриваются такие вопросы, как упрощение таможенных аудит путем проведения таможенных проверок в отношении уполномоченных лиц после выпуска товаров, повышение эффективности работы таможенных органов, а также устранение бюрократических препятствий на пути развития бизнеса и улучшение инвестиционного климата в страны, рациональное использование трудовых ресурсов таможенных органов. Также выделены некоторые особенности и особенности осуществления таможенной проверки в отношении уполномоченных лиц после вывоза товаров.

Ключевые слова: внешнеэкономическая деятельность, уполномоченное лицо, таможенный контроль после вывоза товаров, таможенный аудит, уровни рисков, уполномоченные экономические операторы, таможенные сборы, учет и отчетность.

Abstract: The article focuses on issues such as simplification of customs procedures by carrying out customs audits against authorized persons after the goods are released, increasing the efficiency of customs authorities, as well as eliminating bureaucratic obstacles in the way of business development and improving the investment environment in the country, rational use of labor resources of customs authorities . Also, some specific aspects and features of the implementation of the customs audit against the authorized persons after the export of the goods are highlighted.

Keywords: *foreign economic activity, authorized person, customs control after export of goods, customs audit, risk levels, authorized economic operators, customs fees, accounting and reporting.*

KIRISH

Bugungi kunda jahonning rivojlangan, rivojlanayotgan davlatlari o'rtasida sodir bo'layotgan hamda davom etayotgan turli ziddiyatlar, o'zaro qo'llanilayotgan iqtisodiy sanksiyalar har qanday davlatning iqtisodiyotiga, moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bunday sharoitda jahon bozorida tovar, ish va xizmatlar tashqi savdosida narx va sifat jihatidan kuchli raqobatga bardosh berish barobarida mamlakatning iqtisodiy xavfsizligi va fiskal funksiyasini ta'minlash ko'p jihatdan bojxona organlari tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlarga bevosita bog'liq. Shuningdek, tashqi savdo jarayonida sarflanayotgan vaqt va mablag' ham eng muhim hamda ustuvor omillardan hisoblanadi. Umuman olganda, bojxona organlari bu borada tashqi iqtisodiy faoliyat (keyingi o'rinlarda - TIF) subyektlariga tashqi savdo jarayonlarini tezlashtirilgan tartibda bojxona nazoratidan o'tkazilishida ko'maklashadi. O'z navbatida, ular tomonidan TIF subyektlariga ko'rsatilgan bojxona xizmatlari uchun davlat byudjetiga tovar va transport pozitsiya, subpozitsiyalariga ko'ra tegishli bo'lgan bojxona to'lovlari va yig'implari undiriladi. Bundan tashqari, bojxona organlari ko'rsatayotgan bojxona servis xizmatlarining sifati eng jiddiy ko'rsatkich hisoblanadi. Chunki, ushbu ko'rsatkich davlatning tashqi savdo bo'yicha jahon hamjamiyatidagi o'rni va reytingini belgilashda hisobga olinadi.

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy islohotlar tashqi iqtisodiy faoliyatga, uni erkinlashtirishga va ushbu yo'nalishda bundan keyin amalga oshiriladigan islohotlarga yangicha yondashish zarurligini taqozo etmoqda. Mamlakatda tashqi iqtisodiy faoliyatni liberallashtirish, investitsion jozibadorlikni oshirish va mamlakatning eksport salohiyatini mustahkamlash bo'yicha vazifalar tizimli ravishda amalga oshirilmoqda. Ko'zlangan vazifalarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi asosan bojxona organlari faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Shu bois, yuqoridagilardan muxtasar qilib aytganda, bojxona auditi vakolatli shaxslarning tovar va transport vositalari erkin muomalaga chiqarib yuborilganidan so'ng bojxona qonunchiligiga qanchalik rioya etilganligini tekshirish (bojxona tartib-taomillarini to'laqonli amalga oshirish)ga qaratilgan jarayon deyish mumkin.

Muhtasar qilib aytganda, bojxona auditi mamlakat iqtisodiyotini jahon xo'jaligiga tashkiliy, huquqiy, moliyaviy, boshqaruv jihatdan yaqinlashtirish, bu bevosita jahon andozalarini milliy iqtisodiyotimizga qo'llashga olib keladi va natijada integratsiyalashuv jarayonlari tezlashadi. O'zbekiston iqtisodiyotini yanada yuksaltirish ko'p jihatdan integratsiya jarayonlarini rivojlantirishga bog'liq.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR:

Jahon iqtisodiyotidagi globallasuv, integratsion jarayonlarning kuchayishi, transmilliy korporatsiyalarning rivojlanishi hamda tashqi savdning jadallashuvida bojxona auditi muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro amaliyotda bojxona auditini tashkil etish va o'tkazish mexanizmlarini takomillashtirish, xalqaro standartlarini ishlab chiqish, bojxona auditi jarayonini yanada rivojlantirish bo'yicha ko'plab ilmiy va amaliy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Tadqiqotlar natijasida bojxona auditing eksport-import tartib-taomillari, soliq va boj to'lovchilar qonunga itoatkorligiga ta'siri aniqlangan hamda uning Davlat budjeti daromad qismining oshishiga olib kelishi va bojxona organlari xarajatlarini qisqartirishi asoslangan. Shuningdek, bojxona auditi samaradorligini baholash metodologiyasini takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar amalga oshirilgan. Keyingi vaqtlarda jahonda qabul qilingan xalqaro norma va standartlarga muvofiq, bojxona auditidan keng foydalanilmoqda va yuqori samaradorlikka erishilmoqda. Hozirgi kunda bojxona auditi zamonaviy bojxonaning ajralmas bir bo'lagi bo'lib ulgurdi. Ko'plab rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar tajribalarini o'rganadigan bo'lsak, bojxona organlari bevosita bojxona auditini o'tkazishga mas'ul etib belgilangan.

Bojxona auditi tushunchasi turli mamlakatlarda turlicha so'zlar bilan atalsa-da, ma'no jihatdan deyarli farq qilmaydi. Misol uchun Kanadada "Post-Realize Verification", YOII da "Bojxona tekshiruvi", Xitoy, Koreya, Yaponiya, Singapur, Yevropa Ittifoqi va Jahon bojxona tashkilotida "Post-Klearance Audit" atamallari bilan ataladi. Bojxona auditi tushunchasiga izoh beradigan bo'lsak, uning turli mutaxassislar tomonidan o'ziga xos talqinlari uchraydi. Bojxona auditi to'g'risida so'z borar ekan, soha mutaxassislari quyidagi fikr-mulohazalarini bildirib o'tish joiz. Jumladan, X.Boybekov: "Bojxona auditi tovarlar chegara bojxona postidan chiqarib yuborilgandan so'ng bojxona qonun-qoidalariga qay darajada rioya etilganini, moliya-xo'jalik faoliyatiga bog'liq bo'lgan hujjatlarni o'rganishdan iborat bo'lgan bojxona nazorat shaklidir"¹¹¹ deya e'tirof etgan bo'lsa, N.Abdunazarov esa: "Bojxona auditing maqsadi – O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va O'zbekiston Respublikasi bilan tuzilgan xalqaro shartnoma, kelishuvlar shartlarining amaldagi ijrosida tashqi savdga oid qonun buzilish holatlarini va qabul qilingan standartlardagi tashqi savdga oid farqlarni hamda tashqi savdga oid faoliyat samaradorligi tamoyillarini yanada oldinroq vaziyatda aniqlash va umuman tashqi savdo faoliyatini amalga oshirishga ko'maklashishdan iborat. Shuningdek, tovarlarni bojxona rasmiylashtiruv vaqtida bojxona risklarini kamaytirish va bojxona nazorati bilan bog'liq xarajatlarni qisqartirishdan iborat"¹¹² deya izoh keltiradi. Agapova A.V. fikricha: "Bojxona auditing asosiy vazifasi – qonunlarga itoat etuvchi vijdonli TIF

¹¹¹ X.Boybekov. Bojxona auditi qanday amalga oshiriladi? <https://kun.uz/92493872>

¹¹² N.Abdunazarov. Xorijning ilg'or tajribasini O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari. "SCIENTIFIC PROGRESS" Scientific Journal ISSN: 2181-1601 // Volume: 1, ISSUE: 5. <http://www.scientificprogress.uz/uz>.

qatnashchilari uchun bojxona jarayonlarini tezlashtirish, bojxona rasmiylashtiruv jarayonidagi ortiqcha xarajatlarni kamaytirish hamda bojxona auditini bojxona rasmiylashtiruv vaqtida emas, balki tovarlarni erkin muomalaga chiqarilgandan so‘ng o‘tkazishdan iborat”¹¹³, Stupachenko I.N. esa: “Bojxona auditining mohiyati - tovarlarni import qilish bo‘yicha bitimlarda soliq va bojxona organlari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik strategiyasini qurishda, soliq e’tirozlari uchun asos bo‘luvchi bo‘lishi mumkin bo‘lgan hisobdagi xatoliklarni aniqlash tahlilida namoyon bo‘ladi”¹¹⁴, deb izohlaydi. Bojxona auditining asosiy vazifalaridan biri – bojxona to‘lovlarini to‘g‘ri hisoblanganligi va undirilganligini baholashdan iborat. Bu hozirgi xalqaro iqtisodiy munosabatlar rivojlanayotgan bir vaqtda, eksport-import salohiyati byudjet siyosatining muhim ko‘rsatkichlaridan biri bo‘lib qolayotganligini ta’kidlash joiz. Luneva Ye.P. fikriga ko‘ra: “Bojxona auditi – bojxona rasmiylashtiruv yakunlangandan so‘ng, qonunchilik va xalqaro shartnomalarga rioya qilinishini ta’minlash maqsadida, bojxona organlari tomonidan, tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilari, bojxona chegarasi orqali harakatlangan tovar va transport vositalariga bevosita va bilvosita aloqador xo‘jalik subyektlari faoliyatini tekshiruvdan o‘tkazish asosida amalga oshiriladigan o‘zaro bog‘liq, kompleks chora-tadbirlarni qamrab oladi”. Marchuk I. ham bu borada fikr bildirib: “Bojxona auditi jarayonini, tovarlarni amaldagi yetkazib berish sxemasiga muvofiq, tovarlar artikul asoslari tahlilini o‘tkazish hamda tovarlar erkin muomalaga chiqarilgandan so‘ng, ular bo‘yicha buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish xususiyatlarini o‘rganish, tovarlar bojxona rasmiylashtiruv mexanizmining xususiyatlari sifatida tadqiq etish”¹¹⁵, deb e’tirof etadi. Piskun K. fikriga ko‘ra: “Bojxona auditi – tovarlar erkin muomalaga chiqarilib bo‘lingandan so‘ng, ularga nisbatan munosabatda e‘lon qilingan bojxona rejimiga muvofiq, deklaratsiyalash vaqtida e‘lon qilingan ma‘lumotlarning haqqoniyligini aniqlashga yo‘naltirilgan, xususan, e‘lon qilingan tovarlarning bojxona qiymati to‘g‘riligini tasdiqlash, xatoliklarni aniqlashga qaratilgan chora-tadbirlarni o‘tkazish”¹¹⁶dan iborat.

Rossiya Federatsiyasining bojxona auditorlari va maslahatchilari uyushmasi bosh direktori Mariya Serebrovaning so‘zlariga ko‘ra, bojxona auditining asosiy vazifasi bojxona organlari va tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlari o‘rtasida shaffof va ishonchli munosabatlarni o‘rnatishdan iborat va bojxona tekshiruv bo‘yicha bojxona qonunchiligi buzilishining asosiy sabablarini yo‘q qiladi. Ko‘pincha, bunday qoidabuzarliklar ataylab emas, balki qonunni noto‘g‘ri tushunish yoki uni mustaqil ravishda to‘g‘ri qo‘llash ko‘nikmasi orqali vujudga keladi.

¹¹³ Sh.Azizov. Sohada moliyaviy nazoratning yangi shakli yoki bojxona auditini tashkil etishning nazariy, amaliy va huquqiy muammolari. http://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/30_Sh_Azizov.pdf.

¹¹⁴ Sh.Azizov. Sohada moliyaviy nazoratning yangi shakli yoki bojxona auditini tashkil etishning nazariy, amaliy va huquqiy muammolari. http://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/30_Sh_Azizov.pdf.

¹¹⁵ Sh.Azizov. Sohada moliyaviy nazoratning yangi shakli yoki bojxona auditini tashkil etishning nazariy, amaliy va huquqiy muammolari. http://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/30_Sh_Azizov.pdf.

¹¹⁶ Sh.Azizov. Sohada moliyaviy nazoratning yangi shakli yoki bojxona auditini tashkil etishning nazariy, amaliy va huquqiy muammolari. http://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/30_Sh_Azizov.pdf.

Bizningcha esa, bojxona auditi — bojxona organlari tomonidan bojxona deklaratsiyasida ko'rsatilgan ma'lumotlarning aniqligi va ishonchligini tekshirish maqsadida tadbirkorlik subyekti tomonidan yuritiladigan buxgalteriya hisobotlari va barcha tegishli tijorat ma'lumotlarini o'rganish orqali ko'riladigan choralar.

Demak, yuqoridagi mualliflar fikrini umumlashtirib, aytish mumkinki, bojxona auditi — davlat moliyaviy nazoratining yangi bir shakli bo'lib, tovarlar erkin muomalaga chiqarilgandan so'ng, bojxona organlari tomonidan o'tkaziladigan tekshiruv jarayonidir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

So'nggi yillarda O'zbekistonning bojxona siyosati juda katta o'zgarishlarga duch keldi, shu jumladan bojxona qonunchiligi, rasmiylashtirish qoidalari va tartibi, shuningdek tashqi savdo tarkibidagi o'zgarishlar import va eksport tovarlarining bojxona rasmiylashtiruvini vaqtini qisqartirish va umumiy bojxona nazoratidan xavfni boshqarish tizimidan foydalangan holda, tanlab nazoratdan o'tkazish zarurligini keltirib chiqardi. Shu sababli, 2018-yil 24-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5582-son "Bojxona ma'muriyatchiligini takomillashtirish va O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Farmoni qabul qilindi. Shundan keyin, Xavfni boshqarish avtomatlashtirilgan tizimi 2019-yil 1-martdan boshlab to'liq rejimda joriy etildi. Xavfni boshqarish tizimiga va tanlab bojxona nazoratidan o'tkazish tamoyiliga o'tish hozirgi kunda tovarlarni chiqarib yuborilganidan keyin bojxona auditini amaliyotga joriy etish zaruratini keltirib chiqardi. Shu sababli, tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilari uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, bojxona rasmiylashtiruvini qisqartirish doirasida auditlar o'tkazish yo'li bilan tovarlar chiqarib yuborilganidan keyin bojxona nazoratini amalga oshirish dolzarb mavzusiga aylandi.

Tovarlar chiqarib yuborilganidan keyin bojxona nazoratini amalga oshirish O'zbekiston Respublikasi bojxona xizmati uchun O'zbekiston Respublikasi bojxona qonunchiligiga rioya qilinishini taminlashning eng istiqbolli choralardan biri hisoblanadi. Bojxona auditi orqali tovarlar chiqarib yuborilganidan keyin bojxona nazorati tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilari uchun qulay shart-sharoitlar yaratish orqali bojxona protseduralarini soddalashtirish va tezlashtirishga yordam berishi mumkin, chunki bu nazorat tovarlar chiqarib yuborilganidan keyingi vaqtda o'tkazishni o'z ichiga oladi. Ushbu talablardan kelib chiqib, respublikada tashqi iqtisodiy faoliyatni liberallashtirish, investitsion jozibadorlikni oshirish va mamlakatning eksport salohiyatini mustahkamlash bo'yicha vazifalarni tizimli ravishda amalga oshirish, shu jumladan, bojxona ma'muriyatchiligi sohasida mamlakatda qulay investitsiya muhitini yaratish va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga to'squinlik qiluvchi bir qator tizimli muammolarni bartaraf etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Bojxona auditini o'tkazish tartibi to'g'risidagi

nizomni tasdiqlash to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"² gi 101-sonli qarori qabul qilindi.

Ushbu qarorga ko'ra:

bojxona auditi — tovarlarni chiqarishga ruxsat berilgandan so'ng bojxona to'g'risidagi qonunchilik hujjatlariga rioya etilganligini vakolatli shaxslar tomonidan bojxona rasmiylashtiruv jarayonida taqdim etilgan hujjatlarni moliya-xo'jalik faoliyatiga bog'liq hujjatlarda aks ettirilgan ma'lumotlar bilan solishtirgan holda o'rganish va tekshirishga asoslangan bojxona nazorati shakli hisoblanadi.

Bojxona auditi ikki xil usulda amalga oshiriladi:

kameral bojxona auditi — bojxona auditini vakolatli shaxsning ish joyi va yoki o'z faoliyatini amalga oshiradigan hududga bormagan holda amalga oshirish;

sayyor bojxona auditi — bojxona auditini vakolatli shaxsning ish joyi yoki o'z faoliyatini amalga oshiradigan hududda yoxud tovarlar joylashgan joyda amalga oshirish.

Bojxona auditi bojxona qoidalariga amal qiluvchi tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, o'rnatilgan tartibotlarga rioya qilmaydigan TIF ishtirokchilari faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirishga mo'ljallangan.

Jahon savdo tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, bojxona auditining amaliyotga joriy etilishi savdo xarajatlarining 14,3 foizga kamayishiga va jahon savdosini 1 trln. AQSH dollariga oshishiga olib kelishini o'z tavsiyalarida ta'kidlab o'tgan.

Qaror bilan, shuningdek, bojxona auditini o'tkazadigan vakolatli shaxslar belgilandi. Dastlab vakolatli shaxs tushunchasiga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, vakolatli shaxs tushunchasiga izoh O'zbekiston Respublikasining "Bojxona kodeksi" da keltirib o'tilgan.

Bojxona kodeksining 7-moddasiga ko'ra **vakolatli shaxs**:

Tovarning va (yoki) transport vositasining egasi yoki tovarga va (yoki) transport vositasiga nisbatan bojxona to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq vakolatlarga ega bo'lgan yohud tovarning va (yoki) transport vositasining egasi nomidan tegishli shartnoma yoki ishonchnoma asosida ish ko'ruvchi shaxs vakolatli shaxsdir.

Bojxona auditi bevosita tashqi iqtisodiyot faoliyat bilan shug'ullanuvchi subyektlariga nisbatan amalga oshiriladi. Ularning ro'yxati qarorda belgilab qo'yildi. Ushbu qarorga asosan bojxona auditi quyidagi vakolatli shaxslarga nisbatan o'tkaziladi:

- deklarant;
- tashuvchi;
- bojxona ombori bo'lmagan joylarda tovarlarni bojxona nazoratida saqlayotgan shaxs;
- bojxona ombori, boj olinmaydigan savdo do'koni va erkin ombor egalari;
- importchi, yukni qabul qiluvchi, tovarlarga nisbatan moliyaviy tartibga solish uchun javobgar shaxslar;

- vakolatli iqtisodiy operator;
- vakolatli shaxsning barcha moliyaviy va huquqiy majburiyatlarini o‘z zimmasiga olgan shaxslar.

Vakolatli shaxslarni bojxona auditidan o‘tkazishning zarurati shundan iboratki, mamlakatlar o‘rtasidagi tovar oqimi o‘sishi zamonaviy sharoitida chegarada bojxona nazorati vaqtini qisqartirish zaruratini kuchaytirdi, bojxona qonunchiligiga rioya qilish talablari esa tovarlar chiqqandan keyin bojxona nazoratining ahamiyatini oshira boshladi. Chegarada nazorat vaqtini qisqartirish tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarining xarajatlarini kamaytirishga qaratilgan savdo tartiblarini soddalashtirish nuqtayi nazaridan ham zarurdir.

Bojxona auditining asosiy vazifalaridan biri – bojxona to‘lovlarining to‘g‘ri hisoblanganligi va undirilganligini baholashdan iboratdir. Bu hozirgi xalqaro iqtisodiy munosabatlar rivojlanayotgan bir vaqtda, eksport-import salohiyati budjet siyosatining muhim ko‘rsatkichlaridan biri bo‘lib qolayotganligini ta’kidlash joiz.

Bojxona auditining maqsadi – O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va O‘zbekiston Respublikasi bilan tuzilgan xalqaro shartnoma, kelishuvlar shartlarining amaldagi ijrosida tashqi savdoga oid qonun buzilish holatlarini va qabul qilingan standartlardagi tashqi savdoga oid farqlarni hamda tashqi savdoga oid faoliyat samaradorligi tamoyillarini yanada oldinroq vaziyatda aniqlash va umuman tashqi savdo faoliyatini amalga oshirishga ko‘maklashishdan iborat. Shuningdek, tovarlarni bojxona rasmiylashtiruvi vaqtida bojxona xavflarini kamaytirish va bojxona nazorati bilan bog‘liq xarajatlarni qisqartirishdan iborat.

Vakolatli shaxslarni bojxona auditidan o‘tkazishning o‘ziga xos xususiyatlariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, bojxona auditining amaliyotga joriy etilishi bir vaqtda nafaqat bojxona organlari, hamda tadbirkorlik subyektlari uchun manfaatli hisoblanadi.

Dastlab, tovarlar chiqarib yuborilgandan keyingi audit usullarini qo‘llagan holda bojxona nazorati joriy etilishining bojxona organlari uchun afzalliklarini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, bojxona organlari uchun tovarlar chiqarib yuborilgandan keyingi bojxona auditi davlat daromadlarini himoya qilishga, tadbirkorlik subyektlarining qonunchilikka rioya qilishini yaxshilanishiga, bojxona qoidabuzarliklarni aniqlash va ularning oldini olishga, bojxona nazorati samaradorligining oshishiga xizmat qiladi.

Tovarlar chiqarib yuborilgandan keyingi audit usullarini qo‘llagan holda bojxona nazorati joriy etilishining tadbirkorlik subyektlari uchun quyidagi foydali jihatlari mavjud:

- 1) tovarlarning bojxona rasmiylashtiruvi tezlashadi va TIF ishtirokchilari tomonidan sarflanayotgan xarajatlar qisqaradi va bu o‘z navbatida mamlakat tashqi savdosi rivojlanishiga olib keladi;
- 2) bojxona va biznes vakillari o‘rtasida samarali muloqot yo‘lga qo‘yilib, TIF ishtirokchilarining samaradorlik darajasini oshishiga olib keladi;

3) halol TIF ishtirokchilari uchun bojxona nazorati va rasmiylashtiruvining soddalashtirilgan tartibi keng qoʻllaniladi;

4) halol tadbirkorlar uchun sezilmaydigan bojxona nazoratini tashkil etish imkonini beradi;

Shu bilan birga, tovarlar chiqarib yuborilgandan keyin bojxona organlari tomonidan bojxona auditi oʻtkazilishini inobatga olib, bojxona auditi dasturini ishlab chiqishda bojxona organlari va TIF ishtirokchilari oʻz huquqlari, majburiyatlari toʻgʻrisida aniq tushunchaga ega boʻlishi talab etiladi.

Bojxona organi va TIF ishtirokchilari bojxona auditini oʻzaro manfaatli jarayon sifatida qabul qilishi kerak. TIF ishtirokchilari bojxona auditini moliyaviy audit emasligini tushunishi lozim. Buning oʻrniga bojxona auditi TIF ishtirokchisining xavf sohasiga tegishli tovarlarning deklaratsiyalanishi, bojxona qiymati, TIF TN kodi toʻgʻri tasniflanganligi, boj stavkasi, bojxona toʻlovlaridan berilgan imtiyozlardan toʻgʻri maqsadda foydalanganligi, kelib chiqish mamlakati va boshqa sohalari boʻyicha qonunchilikka muvofiqligini oʻrganish sifatida qabul qilishi kerak.

Davlat va biznes vakillari oʻrtasidagi samarali muloqot va hamkorlikni amalga oshirish hamda zarur boʻlgan ishonchni yaratish va saqlash uchun bojxona auditi dasturini ishlab chiqish, amalga oshirish, boshqarish va baholash muhim jarayondir.

Bundan tashqari, bugungi kunda tovar va transport vositalari bojxona hududiga kirib kelguniga qadar bojxona xizmati tomonidan dastlabki bojxona nazoratdan hamda ular chiqarib yuborilgandan keyin bojxona auditidan oʻtkazish bosqichlariga oʻtishi, xalqaro savdoga bir qancha ijobiy oʻzgarishlar olib kelmoqda.

Xususan, tovar va transport vositalari bojxona hududiga kelguniga qadar TIF ishtirokchilari tomonidan ushbu tovarlarga oid maʼlumotlar oldindan taqdim etiladi va bojxona organlari tomonidan ular oldindan oʻrganib chiqiladi.

Olib borilgan oʻrganishlar va tahlillar natijasida tovarlar soddalashtirilgan tartibda zudlik bilan chiqarib yuboriladi. Maʼlumotlarni oldindan taqdim etish jarayoni tez buziladigan va qayta ishlashni talab etiladigan tovarlar uchun juda foydalidir.

Shuningdek, tovar va transport vositalari bojxona hududiga kirib kelguniga qadar TIF ishtirokchilari tomonidan maʼlumotlarni oldindan taqdim etilishi, dastlabki bojxona nazoratidan oʻtkazishning asosini tashkil etadi. Lekin, mazkur taqdim etilgan maʼlumotlarni toʻliq tahlil qilish uchun qoʻshimcha maʼlumot va hujjatlarni olish va oʻrganish lozim.

Bunday holda, tovar va transport vositalari bojxona hududiga kirib kelguniga qadar dastlabki bojxona nazoratini tovarlar chiqarishga ruxsat berilgandan keyingi bojxona nazorati bilan birlashtirish zarur boʻladi.

Mazkur bosqichda bojxona auditining mexanizmi oʻz vazifalarini boshlaydi. Bunda, bojxona auditi xodimlari tomonidan TIF ishtirokchilari va boshqa vakolatli shaxslarga nisbatan bojxona auditining barcha shakllari qoʻllaniladi.

Bojxona auditi orqali yetarlicha bojxona nazoratini ta'minlanishiga va biznes tizimlarining yuqori darajada qonunchilikka rioya qilinishiga olib kelishini inobatga olib, tashqi savdoning asosiy qismini tashkil etuvchi operatsiyalarni amalga oshiradigan TIF ishtirokchilarining hisob tizimlarini auditdan o'tkazishga qaratilgan bo'ladi. Agar bojxona auditi TIF ishtirokchisining hisob tizimlari va boshqaruv vositalarini halollik ko'rsatkichining oshishiga qaratilsa, shuningdek TIF ishtirokchisining qonunchilikka amal qilish darajasini oshirishga e'tibor berilsa, natijada mazkur TIF ishtirokchisining qonunchilikka rioya qilish darajasining oshishiga olib keladi.

XULOSA

Bojxona xizmati organlari xom-ashyo, tovar, valyuta, xizmat va kapital olib kelish, olib chiqish ustidan davlat nazoratini o'rnatish, tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish, milliy ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash, davlat budjeti daromadini oshirish kabi muhim vazifalarni bajarishi barobarida mamlakat iqtisodiy manfaatlarini o'z vakolatlari darajasida himoya qiladi va uning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlaydi.

Qayd etish joizki, bojxona auditining maqsadi nafaqat TIF qatnashchisining moliya-xo'jalik faoliyati yuritishining haqqoniyligini tekshirish, balki unda hisob yuritish siyosatini takomillashtirish bo'yicha ham tavsiyalar ishlab chiqishdan, bojxona rasmiylashtirish qoidalarini soddalashtirishdan iborat. Boshqacha aytganda, bojxona auditi TIF qatnashchisining bojxona organi talablari asosida hisob va hisobot tizimini qulay tarzda qo'llashga yordamlashadi. Bojxona organlari esa, o'z navbatida, mazkur barcha talab va tavsiyalarga amal qilayotgan TIF qatnashchilari uchun bojxona nazoratini soddalashtirishlari shart. Xulosa qilib o'tadigan bo'lsak, bojxona auditi tadbirkorlar faoliyatini tekshirish emas, balki TIF ishtirokchilarining tashqi savdo tovarlarini bojxona rasmiylashtiruvi jarayonida bojxona qonunchiligiga muvofiqligini baholash tizimi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 24-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona xizmati organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5582-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 25-fevraldagi "Bojxona auditini o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 101-sonli qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksi. O'RQ-400 20.01.2016.
4. J.Qodirov, Sh.Azizov, M.Karimjonova, Z.Makkamov. Bojxona auditi asoslari. /O'quv qo'llanma/ T.:2021, 239 b.
5. Milliy qonunchilik bazasi: <https://lex.uz/docs/-4966537>

6. Jahon bojxona tashkiloti rasmiy veb sayti: ¹ http://www.wcoomd.org/-/media/wco/public/ru/pdf/topics/facilitation/instruments-and-tools/tools/safe-package/aeo-and-sme_rus.pdf?la=en.

7. N.Abdunazarov. Xorijning ilg‘or tajribasini O‘zbekistonda qo‘llash imkoniyatlari. “SCIENTIFIC PROGRESS” Scientific Journal ISSN: 2181-1601 //// \\\\ Volume: 1, ISSUE: 5. <https://cyberleninka.ru/article/n/horizhning-il-or-tazhribasini-zbekistonda-llash-imkoniyatlari>.

8. Лунева Е.П. Методические и организационные основы таможенного аудита экспортно-импортных операций участников внешнеэкономической деятельности: Монография / Под общей редакцией докт. экон. наук, профессора Л.А. Поповой. — М.: РИО РТА, 2003.

9. X.Boybekov. Wojxona auditi qanday amalga oshiriladi? <https://kun.uz/92493872>

10. Сереброва М. Нужно строить мосты, а не стены URL: <https://ataik.ru/news/mosti-tamogenniy-audit> (дата обращения: 03.11.2019)

11. Агапова А.В., Возможности применения зарубежного опыта проведения таможенного контроля после выпуска товаров в России. Научный журнал НИУ ИТМО. Серия «Экономика и экологический менеджмент», №4.

12. Sh.Azizov. Sohada moliyaviy nazoratning yangi shakli yoki bojxona auditini tashkil etishning nazariy, amaliy va huquqiy muammolari. http://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/30_Sh_Azizov.pdf.

13. Sh.Azizov. “Bojxona auditi metodologiyasini rivojlangan Sharqiy Osiyo davlatlari tajribasi asosida o‘rganish va uni O‘zbekistonda qo‘llash imkoniyatlari”- <https://uzjournals.edu.uz/cgi/viewcontent.cgi?article=1149&context=iqtisodiyot>.